

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN TARIX FANIDAN MALAKA SINОВI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi tarix fanidan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari o'qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta'minlash, talabgorlarning davlat va huquq asoslari fani bo'yicha nazariy bilimlari, **amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini** kompleks baholash.

II. Me'yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli "Umumta'lim fanlarini kasbiy ta'lim yo'nalishiga mos tanlov fanlari orqali o'qitishni tashkil etish to'g'risidagi" qo'shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

O'zbekiston tarixi

- 1.O'zbekiston tarixining qadimgi davri
- 2.O'zbekiston tarixining IV – XIII asrlar davri
- 3.O'zbekiston tarixining XIII – XV asrlar davri
- 4.O'zbekiston tarixining XVI – XIX asrlar davri
- 5.O'zbekiston tarixining XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning 90-yillari
- 6.O'zbekiston tarixining mustaqillik davri

Jahon tarixi

7. Qadimgi dunyo tarixi
8. Jahon tarixining oʻrta asrlar davri (V-XV asrlar)
9. Jahon tarixining yangi davri (XVI-XX asr boshlari)
10. Jahonning eng yangi tarixi (XX-XXI asrlar)

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
O'zbekiston tarixi					
1	O'zbekiston tarixining qadimgi davri	Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari. Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo. Mil. avv. VI – mil. III asrlarda O'rta Osiyo.	Qadimgi insonlarning turmush tarzi, diniy e'tiqodlari va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni izohini topadi. Shuningdek, O'zbekiston hududida yashagan qadimgi elatlar va ularning davlat tuzilmalarini (shaharlarini), antik madaniyatning O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni hamda Buyuk Ipak yo'lining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini aniqlay oladi.	15%	6
2	O'zbekiston tarixining IV – XIII asrlar davri	O'rta Osiyoda turkiy qabilalar tomonidan asos solingan davlatlar. Arab xalifaligi. Xorazmshohlar davlati.	Yer egaligi munosabatlari va ilk o'rta asrlarda shakllangan ijtimoiy tabaqalarni farqlay oladi, tarixiy hodisalar o'rtasidagi sabab–oqibat bog'liqligini aniqlaydi. Davlatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tashqi siyosati, madaniy yuksalish jarayonlarini taqqoslaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.	11%	4
3	O'zbekiston tarixining XIII – XV asrlar davri	Xorazmshohlar davlati, Chig'atoy ulusi, Amir Temur va Temuriylar davri.	Davlatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va tashqi aloqalari haqida bilimga ega bo'ladi, tarixiy hodisalar o'rtasidagi sabab–oqibat bog'liqligini aniqlaydi hamda ushbu bilimlarni amaliy misollarda qo'llay oladi. Shuningdek, Mo'g'ullar – Xorazmshohlar o'rtasidagi munosabatlarni, Temuriylar imperiyasi bilan bog'liq ma'lumotlarni farqlaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.	7%	3
4	O'zbekiston tarixining XVI – XIX asrlar davri	XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida Turonda siyosiy vaziyat. Mamlakatimiz tarixida ashtarxoniylar va mang'itlar sulolasi. Qo'ng'irotlar boshqaruvi.	O'zbekiston hududidagi davlatlar (Buxoro, Xiva, Qo'qon) ijtimoiy-iqtisodiy sohasi va madaniy hayoti bilan bog'liq jarayonlarni farqlaydi. Tarixiy hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni amaliy misollarda qo'llay oladi. Shuningdek, har bir davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.	7%	3

		XVI – XIX asrlarda Qoraqalpoqlar. Minglar hukmronligi davri.			
5	O‘zbekiston tarixining XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning 90-yillari	Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoda hukmronligining o‘rnatilishi. Turkistonda milliy-ozodlik harakatlari. Turkiston Muxtoriyati Oktabr to‘ntarishi va Sovetlar hokimiyati.	O‘zbekiston tarixining murakkab davrida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar izohini topadi. Mazkur davrda yuzaga kelgan siyosiy o‘zgarishlar, ijtimoiy tabaqalanish, iqtisodiy inqiroz va islohotlar jarayonini tahlil qiladi. Shuningdek, O‘rta Osiyo davlatlarining dastlab Podsho Rossiyasiga, keyinchalik Sovetlarga vassalga aylanishiga olib kelgan siyosiy va iqtisodiy omillarni, bu jarayonning mintaqa hayotiga ko‘rsatgan ta‘sirini hamda uning uzoq muddatli oqibatlarini baholaydi. Ushbu davrda O‘zbekiston va butun mintaqada olib borilgan siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy siyosatning xususiyatlarini, uning ijobiy va salbiy jihatlarini ajrata oladi.	7%	3
6	O‘zbekiston tarixining mustaqillik davri	Milliy davlatchilikning tiklanishi. Iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy siyosat. Ta‘lim va ilm-fan. Ma‘naviy va madaniy taraqqiyot. Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat. Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik.	O‘zbekiston mustaqillikka erishish jarayonida sodir bo‘lgan voqealarni, shuningdek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarining rivojlanish jarayonlarini izohini topadi. Ushbu bilim va tushunchalarni amaliy misollar, statistik ma‘lumotlar va tarixiy faktlar asosida qo‘llay oladi hamda mustaqillik davrida amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy islohotlarning natijalari va ahamiyatini tahlil qiladi.	11%	4
Jahon tarixi					
7	Qadimgi dunyo tarixi	Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari. Qadimgi Sharq va O‘rta Osiyo.	Qadimgi dunyo tarixida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar, sivilizatsiyalar, qadimgi davlatlar, tarixiy hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni taqqoslaydi. Antik tarixning vujudga kelishi, uning O‘rta Osiyoga ta‘sirini aniqlaydi.	7%	3

		Qadimgi Yunoniston. Qadimgi Rim.			
8	Jahon tarixining oʻrta asrlar davri (V-XV asrlar)	Oʻrta asrlarda Yevropa xalqlari (V-XV asrlar). V-XV asrlarda Osiyo va Amerika. Oʻrta asr xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi oʻzgarishlar.	V–XV asrlarda Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrika xalqlarining siyosiy tuzimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniy rivojlanishi haqidagi asosiy tarixiy maʼlumotlarning izohini topadi va ularni farqlay oladi. Shuningdek, Oʻrta asr xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi oʻzgarishlar va rivojlanish jarayonlarini aniqlaydi, turli mintaqalardagi feodal tuzum, shaharlar rivoji va ijtimoiy tuzilish farqlarini tarixiy manbalar va vaziyatlar asosida tahlil qiladi. Tarixiy maʼlumotlarni mintaqaviy solishtirib, amaliy xulosalar chiqaradi, sabablari va oqibatlarini baholaydi. Shuningdek, Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrika xalqlarining rivojlanishidagi oʻxshashliklar va farqlarni izchil tahlil qiladi.	7%	3
9	Jahon tarixining yangi davri (XVI-XX asr boshlari)	Yevropada yangi davrning boshlanishi. XVI-XX asrlarda Yevropa va Amerika mamlakatlari. XVI-XX asrlarda Osiyo va Afrika mamlakatlari.	Yevropada yangi davr boshlanishi hamda XVI–XX asrlarda Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi haqidagi asosiy maʼlumotlarni farqlay oladi. Xaritalar, tarixiy maʼlumotlar va vaziyatlarni tahlil qiladi. Turli mintaqalardagi siyosiy tizim va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tarixiy manbalar asosida tahlil qiladi, oʻzgarishlarni solishtiradi, sabablari va oqibatlarini baholaydi.	15%	6
10	Jahonning eng yangi tarixi (XX-XXI asrlar)	Birinchi bosqich 1918–1945-yillar. Ikkinchi bosqich 1945–1991-yillar. Uchinchi bosqich 1991-yildan	1918–1945, 1945–1991 va 1991-yildan hozirgi kungacha boʻlgan davrlarga xos asosiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar haqida bilimlarga ega boʻladi. 1918-yildan keyingi tarixiy jarayonlarni siyosiy tizimlar, iqtisodiy model va madaniy oʻzgarishlar nuqtai nazaridan tarixiy manbalar, xaritalar, statistik maʼlumotlar va real vaziyatlar asosida tahlil qilib qoʻllay oladi. Shuningdek, uch tarixiy bosqichda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni oʻzaro solishtirib, ularning sabab–oqibat bogʻliqligini baholaydi hamda mazkur	13%	5

			jarayonlarning global miqyosdagi ta'sirini izchil tahlil qilgan holda xulosalaydi.		
Jami				100%	40

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv ko'nikmalar	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	50%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo'llay olish	42%
3.	Mulohaza qilish	Intellectual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, xulosalash, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish	8%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Raqamlar bilan tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi. A.S.Sagdullayev., V.A.Kostetskiy "Yangiyo'l poligraf servis", Toshkent-2022.
2. Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi. A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy "Yangiyo'l poligraf servis", Toshkent- 2017.
3. O'zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. A.Zamonov., N.Ismatova va b. "Sharq", Toshkent-2022.
4. O'zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. A.Muhammadjonov "Sharq", Toshkent -2017.
5. Jahon tarixi 7-sinf darsligi. L.Nasrullayev va b. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2022.
6. Jahon tarixi 7-sinf darsligi. T. O'.Salimov, F.E.Sultonov, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Toshkent -2017.
7. O'zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. A.Zamonov., N.Ismatova., B.Aminov., Z.Jabborova., Sh.Qudratov, Toshkent-2023.
8. O'zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. U.Jo'rayev, Q.Usmonov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov, "O'qituvchi", Toshkent- 2019.
9. Jahon tarixi 8-sinf darsligi. O.Abdimo'minov, J.Mustafoev., L.Nasrullayev, Toshkent-2024.
10. Jahon tarixi 8-sinf darsligi. R.Farmonov, U. Jo'rayev, Sh.Ergashev, "Cho'lpon", Toshkent -2019.
11. O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. N.Ismatova., U.Jo'rayev, Toshkent-2024.
12. O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. S.Tillaboyev, A.Zamonov, "Sharq", Toshkent- 2019.
13. Jahon tarixi 9-sinf darsligi. Sh.Ergashev., T.Bobomatov, Toshkent-2024.
14. Jahon tarixi 9-sinf darsligi. M.Lafasov, U.Jo'rayev, E.Xoliqov, D.Qodirova, "O'qituvchi", Toshkent -2019.
15. O'zbekiston tarixi 10-sinf darsligi. S.Tillaboyev va b. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2022.

16.O‘zbekiston tarixi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun 10-sinf darsligi. Q.Rajabov, A.Zamonov, “G‘afur G‘ulom”, Toshkent-2017.

17. Jahon tarixi 10-sinf darsligi. Sh.Ergashev va b. Respublika ta’lim markazi Toshkent-2022.

18. Jahon tarixi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun 10-sinf darsligi. Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev “Turon-Istiqlol”, Toshkent -2017.

19. O‘zbekiston tarixi 11-sinf darsligi. N.Jo‘rayev, A.Zamonov, “G‘afur G‘ulom”, Toshkent-2018.

20. Jahon tarixi 11-sinf darsligi. Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev, “Turon-Istiqlol”, Toshkent- 2018.

21. O‘zbekiston tarixi R.H.Murtazayeva www.ziyouz.com kutubxonasi, Toshkent -2005.

22. Jahon tarixi yangi davr XVI-XVIII asrlar Sh.Ergashev, “O‘zbekiston”, Toshkent-2014.

23. Atlas, xarita (O‘zbekiston tarixi va Jahon tarixi yozuvsiz xaritasi bilan) 6-11-sinflar O‘zbekiston respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi.